

INSONNING ATROF MUHITGA BO'LGAN HUQUQINI BMT TIZIMIDA HUQUQIY E'TIROF ETILISHI BOSQICHLARI

Umida Umarova

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19887347>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tizimida atrof-muhit bo'yicha inson huquqlari shakllanishining tarixiy-huquqiy bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Ikkinchi jahon urushidan keyingi global ekologik vaziyat, 1972-yilgi Stokgolm konferensiyasi, 1982-yilgi Tabiatning Butunjahon Xartiyasi hamda 1987-yilgi Brundtland komissiyasi hisobotining barqaror rivojlanish doktrinasidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, 1992-yilgi Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi va "Agenda 21" strategiyasining ekologik huquqlarni inson huquqlari tizimiga integratsiya qilishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqola yakunida xalqaro ekologik standartlarning milliy qonunchilikni modernizatsiya qilishdagi doktrinal ahamiyati yuzasidan xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: BMT, ekologik huquqlar, Stokgolm deklaratsiyasi, barqaror rivojlanish, Brundtland hisoboti, Rio deklaratsiyasi, Agenda 21, avlodlararo adolat, ehtiyotkorlik tamoyili, ifloslantiruvchi to'laydi.

BMT tizimida atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi shunchaki ilmiy qiziqish emas, balki insoniyatning omon qolish instinkti natijasida kun tartibiga chiqdi. Buning ildizlarini Ikkinchi jahon urushidan keyingi global vaziyat bilan bog'lash zarur. Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyo iqtisodiyotini qayta tiklash maqsadida boshlangan jadal industrializatsiya tabiatga misli ko'rilmagan darajada zarar yetkazdi. Urush davridagi harbiy texnologiyalar (masalan, kimyoviy moddalar, yadroviy sinovlar) tinchlik davrida qishloq xo'jaligi va sanoatga ko'chirildi. Bu esa atmosfera va suv resurslarining global miqyosda ifloslanishiga olib keldi. Aynan shu davrda insoniyat "cheksiz resurslar" haqidagi afsonaning yakuniga yetganini anglab yetdi.¹ 1945-yilgi atom bombalarining qo'llanilishi va undan keyingi yadroviy qurollanish poygasi insoniyat oldida faqat siyosiy emas, balki global ekologik halokat xavfini tug'dirdi. Radioaktiv nurlanishning inson salomatligiga va atrof-muhitga ta'siri xalqaro hamjamiyatni "yashash huquqi" tushunchasini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi.² Dunyoda bir qator ekologik fojialar (masalan, kemalardan neft to'kilishi, zaharli tumanlar) sodir bo'lishi BMTni inson huquqlari va ekologiyani bog'lovchi yagona platforma yaratishga undadi.

BMT tashkil etilgan ilk yillarda atrof-muhit masalalari inson huquqlari bilan bevosita bog'lanmagan edi. Xalqaro maydonda uzoq yillik inson qadr-qimmatini poymol etilishidan so'ng ilk bor inson huquqlariga e'tibor qaratgan hujjat – "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da ham ekologik huquqlar haqida hech qanday so'z yuritilmagan. Biroq, 3-

¹ Xalimjon o'g'li I. S. DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINING GLOBAL EKOLOGIK OMILLARI //Innovation Science and Technology. – 2025. – T. 1. – №. 9. – C. 78-82. <https://ist-journal.uz/index.php/IST/article/download/254/226>

² Amrullayevich A. M. IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI GLOBAL SIYOSIY TARTIB VA UNING XUSUSIYATLARI //SHOKH LIBRARY. – 2026. – T. 1. – №. 1. <http://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/10856>

moddada belgilangan “Har bir inson yashash... huquqiga ega.”³ tamoyili va 25-moddada “Har bir inson o‘zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan turmush darajasiga ega bo‘lish... huquqiga ega.”⁴ kabi tamoyillari kelgusida ekologik huquqlarni huquqiy asoslash uchun poydevor bo‘lib xizmat qildi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, toza atrof-muhit yashash huquqining uzviy bog‘liq qismidir. Bugun dunyo har bir suveren davlatdan o‘z fuqarolari uchun nafaqat shunchaki yashash huquqini talab qilmoqda, balki, munosib ekologik muhitni ta‘minlab berishni ham so‘ramoqda. Boshqa bir jihatdan davlatlarning atrof-muhitga bo‘lgan munosabati siyosatning muayyan qismini ham ko‘rsatmoqda.

Ekologik normalarning ilk rasmiy ko‘rinishi 1966-yilgi “**Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida**”gi xalqaro paktda aks etdi. Paktning 12-moddasida davlatlarning “tashqi muhitning hamma jihatlarini va sanoatda mehnat gigiyenasini yaxshilash”⁵ majburiyati belgilandi. Xalqaro ekologik huquqning shakllanishida 1960-yillarning ikkinchi yarmi tub burilish davri bo‘ldi. Bu davrda nafaqat g‘arb kapitalistik davlatlari, balki sotsialistik va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham iqtisodiy o‘shishning salbiy oqibatlarini – atrof-muhitning ifloslanishi, shovqin, chiqindilar va pestitsidlarning inson salomatligiga zararli ta‘siri keskin sezila boshladi. Ortib borayotgan ekologik halokatlar va jamoatchilik bosimi natijasida ushbu masala Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) kun tartibiga olib chiqildi. 1968-yilda BMT Bosh Assambleyasining 2398-sonli rezolyutsiyasi bilan atrof-muhit inqirozi insonning fundamental huquqlariga tahdid solishi xalqaro hamjamiyat tomonidan ilk bor rasman e‘tirof etildi.⁶ Mazkur rezolyutsiya 1972-yilda Stokgolmda inson atrof-muhiti bo‘yicha birinchi xalqaro konferensiyani o‘tkazishga zamin yaratdi. 1972-yildagi Stokgolm konferensiyasiga tayyorgarlik jarayoni ekologik huquqlar tarixida “bilimlar va siyosiy irodani shakllantirish” bosqichi sifatida xarakterlanadi. Tarixiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, konferensiyaga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida tuzilgan tayyorgarlik qo‘mitasi BMTga a‘zo davlatlardan o‘z hududidagi ekologik holat bo‘yicha milliy hisobotlarni (Country Reports) taqdim etishni talab qilgan. Natijada dunyoning **85 ta davlatidan**, jumladan, sotsialistik tizimga kiruvchi va sanoatlashmagan rivojlanayotgan mamlakatlardan ham maxsus hisobotlar qabul qilib olingan. Ushbu hisobotlarning ilmiy ahamiyati shundaki, ular ekologiyani faqatgina “G‘arbga xos” yoki “boy davlatlar muammosi” degan qarashni inkor etib, atrof-muhit muhofazasi barcha siyosiy va iqtisodiy tizimlar uchun universal insoniy qadriyat ekanligini isbotladi.⁷ 1970-yilda BMT Bosh kotibi Situ U Tantning barcha a‘zo davlatlarga o‘z mamlakatidagi ekologik holat bo‘yicha milliy hisobot tayyorlash haqidagi murojaati ekologik huquqlar tarixida “global inventarizatsiya” davrini boshlab berdi. Biroq, ushbu jarayon silliq kechmaganligini ta‘kidlash lozim. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘sha davrda sanoatlashmagan (rivojlanayotgan) davlatlar Stokgolm konferensiyasiga nisbatan katta shubha bilan qaraganlar. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar

³ “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” 3-modda <https://lex.uz/docs/-7338189>

⁴ “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” 25-modda <https://lex.uz/docs/-7338189>

⁵ “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt <https://lex.uz/docs/-2686000>

⁶ “**Only One Earth**: Environmental Perceptions and Policies before the Stockholm Conference, 1968–1972” <https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-global-history/article/only-one-earth-environmental-perceptions-and-policies-before-the-stockholm-conference-19681972/3DF642E397EC69DADA23C20B35C6DDE2>

⁷ “**Only One Earth**: Environmental Perceptions and Policies before the Stockholm Conference, 1968–1972” <https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-global-history/article/only-one-earth-environmental-perceptions-and-policies-before-the-stockholm-conference-19681972/3DF642E397EC69DADA23C20B35C6DDE2>

vakillari ekologik muammolarni asosan boy, sanoatlashgan davlatlarning “mahsuli” deb hisoblab, qashshoqlik va ochlik kabi muammolar ular uchun ustuvorroq ekanini ta’kidlashgan. Misr vakili Mostafa Tolba o’sha davrdagi kayfiyatni quyidagicha ifodalagan edi: *“None of us [ministers from developing countries] ever accepted the idea of environment as an important issue. We considered [...] that environment is the problem of the rich. They [...] try to block our own development under the guise of protecting the environment”*.⁸ – *“Biz (rivojlanayotgan davlatlar vazirlari) ekologiyani hech qachon muhim masala deb qabul qilmaganmiz. Biz buni boylarning muammosi va ular bizning rivojlanishimizga to’sqinlik qilish uchun o’ylab topgan niqob deb hisoblaganmiz”*.

Ushbu qarama-qarshiliklarni yumshatish va global konsensusga erishish maqsadida BMT tomonidan bir qator strategik qadamlar tashlandi. Xususan, 1971-yilda Shvetsariyaning Funeks shahrida o’tkazilgan mutaxassislar uchrashuvi natijasida qabul qilingan **“Funeks hisoboti”**⁹ atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy rivojlanish bir-biriga zid emasligini birinchi bo’lib asoslab berdi. Yakunda 85 ta davlat tomonidan taqdim etilgan 4042 sahifalik milliy hisobotlar insoniyat tarixidagi ilk global ekologik baholash hujjatiga aylandi. Konferensiya kotibi Moris Strong 1971-yilda ushbu jarayonni yuqori baholab, shunday degan edi:

“There had now been collected an unprecedented amount of material on the environment which represented the first global assessment ever carried out”.¹⁰ – *“Hozirgi vaqtga kelib, atrof-muhit bo’yicha misli ko’rilmagan miqdordagi materiallar to’plandi va bu insoniyat tarixida amalga oshirilgan ilk global baholashni anglatadi.”*¹¹ Shunday qilib, 1968–1972-yillar oralig’idagi tayyorgarlik jarayoni shuni isbotladiki, ekologik huquqlar faqat G’arbga xos fenomen bo’lmay, u sovuq urushning har ikki tomonida hamda rivojlanayotgan janubiy davlatlarda ham global bilim va harakat maydoni sifatida shakllangan. Bu bosqichda to’plangan tajriba va ilmiy ma’lumotlar ekologiyani inson huquqlari tizimiga universal tarzda kiritish uchun zarur bo’lgan huquqiy va ijtimoiy argumentlarni taqdim etdi.

1972-yil 5-16-iyun kunlari Stokgolmda o’tgan konferensiya **“Yagona Yer”** (Only One Earth) shiori ostida 113 mamlakatdan kelgan delegatlarni birlashtirdi. Konferensiya yakunida qabul qilingan **Stokgolm deklaratsiyasi va 106 ta tavsiyadan iborat Harakatlar rejasi** global ekologik siyosatning ilk konsensusi bo’lib xizmat qildi. Garchi ushbu hujjatlarning majburiylik darajasi o’sha davrda munozarali bo’lsa-da, aynan ular BMTning atrof-muhit bo’yicha dasturi – **UNEP**¹² tashkil etilishiga huquqiy asos bo’ldi. **Stokgolm deklaratsiyasining** 1-moddasi insonning munosib sifatli atrof-muhitda yashashga bo’lgan **“asosiy huquqi”**ni e’lon qildi. Ushbu deklaratsiya insoniyat tarixida ekologik huquqlarni nafaqat tabiatni asrash, balki inson hayotining ijtimoiy va iqtisodiy asosi sifatida belgilagan ilk universal platforma bo’ldi. Deklaratsiyaning **2 va**

⁸**‘Only One Earth’: Environmental Perceptions and Policies before the Stockholm Conference, 1968–1972**
<https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-global-history/article/only-one-earth-environmental-perceptions-and-policies-before-the-stockholm-conference-19681972/3DF642E397EC69DADA23C20B35C6DDE2>

⁹ **Funeks hisoboti** – funksional tahlil hisobotlari.

¹⁰**‘Only One Earth’: Environmental Perceptions and Policies before the Stockholm Conference, 1968–1972**
<https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-global-history/article/only-one-earth-environmental-perceptions-and-policies-before-the-stockholm-conference-19681972/3DF642E397EC69DADA23C20B35C6DDE2>

¹¹**‘Only One Earth’: Environmental Perceptions and Policies before the Stockholm Conference, 1968–1972**
<https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-global-history/article/only-one-earth-environmental-perceptions-and-policies-before-the-stockholm-conference-19681972/3DF642E397EC69DADA23C20B35C6DDE2>

¹² **UNEP** (United Nations Environment Programme) — **BMTning Atrof-muhit bo’yicha dasturi**

3-moddalarida¹³ mustahkamlangan tabiiy resurslarni asrash majburiyati xalqaro huquqqa “ekologik rejalashtirish” va “avlodlararo adolat” tushunchalarini olib kirdi. Ushbu normalar davlatlarning o‘z tabiiy resurslari ustidan suveren huquqi cheksiz emasligini, aksincha, ushbu huquq hozirgi va kelajak avlodlarning hayotiy ehtiyojlarini inobatga olish zarurati bilan cheklanganligini huquqiy jihatdan asoslaydi.¹⁴ 2-moddada “kelajak avlodlar manfaati” iborasining qo‘llanilishi, ekologik huquqlarni vaqt doirasidan chiqarib, ularni universal va davomiy inson huquqi maqomiga ko‘tardi. Binobarin, 3-modda resurslarni shunchaki konservatsiya qilish (asrab qo‘yish) emas, balki ularning qayta tiklanish qobiliyatini saqlashni iqtisodiy faoliyatning majburiy sharti sifatida belgilaydi. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy o‘sish paradigmasini tabiatning biologik imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirishni talab qiluvchi huquqiy cheklovdir.

Deklaratsiyaning **11-va 12-moddalari**¹⁵ ekologik huquqlarning nafaqat tabiatni asrash, balki “global adolat” va davlatlararo tenglik masalasi ekanligini ochib beradi. 11-modda xalqaro huquqiy daxlsizlik mexanizmi sifatida xizmat qilib, rivojlangan davlatlar tomonidan o‘rnatiladigan qattiq ekologik standartlar rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishiga “yashirin to‘siq” bo‘lmashligini kafolatlaydi. Ushbu normaning mantiqiy davomi bo‘lgan 12-modda esa eng muhim iqtisodiy-huquqiy mexanizmni – “moliyaviy va texnik ko‘mak” majburiyatini o‘rtaga tashlaydi. Ta’kidlash joizki, bu tamoyillar bugungi kunda xalqaro ekologik huquqning ustuvor tamoyili hisoblangan “umumiy, ammo tabaqalashtirilgan majburiyatlar” doktrinasining huquqiy poydevori hisoblanadi. Ya’ni, ekologik huquqlarni amalga oshirish davlatlar uchun teng bo‘lmagan iqtisodiy og‘irlikni keltirib chiqarmasligi uchun global birdamlik huquqiy zarurat darajasiga ko‘tarildi.

Stokgolm konferensiyasining eng salmoqli ilmiy xulosasi uning **8- va 9-moddalarida**¹⁶ hamda “Funeks hisoboti”da o‘z aksini topdi. Ushbu normalar ekologik inqirozni iqtisodiy “rivojlanmaganlik” inqirozi bilan bog‘laydi. 8-modda iqtisodiy taraqqiyotni inson uchun “munosib yashash muhiti”ni ta’minlashning zaruriy sharti sifatida e’tirof etadi. 9-modda esa ekologik nuqsonlarning asosiy manbasi sifatida sanoat o‘sishini emas, balki qashshoqlik va rivojlanmaganlik sharoitini ko‘rsatadi. Ushbu tahliliy yondashuv ekologik huquqlarning tabiatini tubdan o‘zgartirdi: endilikda ekologik muhofaza deganda faqatgina sanoat ifloslanishini kamaytirish emas, balki birinchi navbatda qashshoqlikni tugatish va barqaror infratuzilmani yaratish tushuniladi. Demak, insonning sog‘lom atrof-muhitga bo‘lgan huquqi uning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari bilan dialektik bog‘liqlikda mavjud bo‘lib, birini ikkinchisidan ayirib bo‘lmashligi xalqaro huquqiy norma sifatida muhrlandi.

1982-yil 28-oktabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan **Tabiatning Butunjahon Xartiyasi** ekologik huquqlar tarixida “axloqiy va huquqiy inqilob” sifatida baholanadi. Agar 1972-yilgi Stokgolm deklaratsiyasi atrof-muhitni ko‘proq insonning hayotiy ehtiyojlarini qondiruvchi “resurs” sifatida talqin qilgan bo‘lsa, 1982-yilgi Xartiya tabiatning inson uchun foydali yoki foydasizligidan qat’i nazar, uning daxlsizligi va mustaqil qiymatini tan oldi. Xartiyaning konseptual asosi tabiatning har qanday shakli o‘ziga xos qiymatga ega ekanligi va

¹³ Stokgolm deklaratsiyasi <https://legal.un.org/avl/ha/dunche/dunche.html>

¹⁴ Stokgolm deklaratsiyasi <https://legal.un.org/avl/ha/dunche/dunche.html>

¹⁵ Stokgolm deklaratsiyasi <https://legal.un.org/avl/ha/dunche/dunche.html>

¹⁶ Stokgolm deklaratsiyasi <https://legal.un.org/avl/ha/dunche/dunche.html>

insoniyat ushbu murakkab zanjirning bir qismi ekanligi haqidagi g'oyaga tayanadi. Hujjatning **1-moddasida**¹⁷ aks etgan tabiatning daxlsizlik prinsipi xalqaro huquqda ekologik obyektlarni nafaqat iqtisodiy mulk, balki huquqiy muhofaza qilinishi shart bo'lgan global qadriyat darajasiga ko'tardi. Bu yerda insonning sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquqi tabiatning o'z huquqlari bilan dialektik bog'liqlikda shakllantirildi. Xartiyaning tahliliy jihatdan eng muhim nuqtasi – iqtisodiy rivojlanish va biologik xilma-xillik o'rtasidagi huquqiy muvozanatni belgilashidir. Xususan, resurslardan foydalanishda ularning “qayta tiklanish qobiliyati” ustuvor mezon sifatida belgilandi. Bu degani, har qanday iqtisodiy loyiha tabiatning mahsuldorligiga va turlarning genetik yaxlitligiga zarar yetkazmasligi shart. Ushbu yondashuv xalqaro ekologik huquqda “ehtiyotkorlik tamoyili” poydevori bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, Xartiyaning **21-moddasi**¹⁸ ekologik mas'uliyatni nafaqat davlatlar, balki har bir shaxs va xalqaro tashkilotlar zimmasiga yukladi. Bu norma insonning ekologik huquqlarini individual huquq darajasidan global mas'uliyat darajasiga olib chiqdi.

Xulosa qilib aytganda, 1982-yilgi Xartiya insoniyatning tabiat ustidan "mutloq hukmronlik" qilish haqidagi qarashlariga chek qo'yib, ekologik huquqlarni "**global etika**" qoliplariga soldi. Dissertatsiya nuqtayi nazaridan ushbu hujjat ekologik huquqlarning nafaqat ijtimoiy ehtiyoj, balki sivilizatsiyaviy majburiyat ekanligini ilmiy asoslashda eng kuchli doktrinal manba hisoblanadi.

1980-yillarning o'rtalariga kelib, xalqaro hamjamiyat ekologik inqiroz va iqtisodiy ehtiyojlar o'rtasidagi ziddiyatni faqatgina texnik choralar bilan hal qilib bo'lmasligini anglab yetdi. Shu maqsadda BMT huzurida tuzilgan Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha butunjahon komissiyasi (Grob Xarlem Brundtland boshchiligida) 1987-yilda o'zining tarixiy "**Bizning umumiy kelajagimiz**" nomli hisobotini taqdim etdi. Ushbu hujjatning fundamental ahamiyati shundaki, u ilk bor nafaqat ekologik muhofaza, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy adolatni yagona huquqiy tizimga birlashtirgan "**Barqaror rivojlanish**" konsepsiyasini xalqaro iste'molga kiritdi. Hisobotda mustahkamlangan barqaror rivojlanishning huquqiy ta'rifi – ya'ni kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga zarar yetkazmagan holda, hozirgi kun ehtiyojlarini qondirish prinsipi – xalqaro huquqda “avlodlararo tenglik” doktrinasini nazariyadan amaliy majburiyat darajasiga ko'tardi.¹⁹ Mazkur yondashuv insonning sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquqini cheksiz iste'mol qilish huquqi sifatida emas, balki kelajak avlodlar oldidagi huquqiy omonat sifatida talqin etadi. Bu esa o'z navbatida, davlatlarning iqtisodiy siyosatini tabiatning qayta tiklanish imkoniyatlari bilan qat'iy muvofiqlashtirish majburiyatini keltirib chiqardi. Shuningdek, Brundtland hisoboti ekologik huquqlarni “uch oyoqli kursi” modeli asosida shakllantirib, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik va atrof-muhit musaffoligini bir-biridan ayri holda tasavvur qilib bo'lmasligini isbotladi.²⁰ Hujjatning tahliliy xulosalariga ko'ra, ekologik tanazzulning asosiy omili bo'lgan qashshoqlikni yengish uchun iqtisodiy o'sish zarur bo'lsa,

¹⁷ BMT xalqaro huquq audio-vizual kutubxonasi (Tahliliy sharh)

<https://digitallibrary.un.org/record/39295?ln=en&v=pdf>

¹⁸ BMT xalqaro huquq audio-vizual kutubxonasi (Tahliliy sharh)

<https://digitallibrary.un.org/record/39295?ln=en&v=pdf>

¹⁹ BMT Barqaror rivojlanish platformasi (To'liq PDF matn): [Report of the World Commission on Environment and Development: Our Common Future](#)

²⁰ BMTning tarixiy hujjatlar arxivi: [History of the Brundtland Commission](#)

ushbu o‘shning davomiyligini ta‘minlash uchun esa ekologik resurslar daxlsizligi shartdir. Ushbu mantiqiy zanjir xalqaro huquqiy amaliyotga “ekologik mas‘uliyatni barcha davlat siyosatiga integratsiya qilish” tamoyilini olib kirdi. Binobarin, 1987-yilgi ushbu strategik hujjat 1992-yilda Rio-de-Janeyro sammitida qabul qilingan “XXI asr kun tartibi” (*Agenda 21*) va Rio deklaratsiyasi uchun huquqiy yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qildi.

1992-yilda Rio-de-Janeyro shahrida bo‘lib o‘tgan BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi (UNCED) xalqaro ekologik huquqning konseptual poydevorini muhrlab berdi. Konferensiya natijasida qabul qilingan **Rio deklaratsiyasi 27** ta fundamental moddani o‘z ichiga olib, ularning markazida insonning tabiat bilan uyg‘unlikda barqaror rivojlanish huquqi turadi. Ushbu hujjatning huquqiy ahamiyati shundaki, u ekologik muhofazani shunchaki tavsiya emas, balki iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismi darajasiga ko‘tardi. Deklaratsiyaning **1-moddasida** inson barqaror rivojlanishning markaziy subyektini ekanligi va uning tabiat bilan uyg‘unlikda sog‘lom va samarali hayot kechirishga bo‘lgan huquqi e‘tirof etilgan. Shuningdek, **3-moddada**²¹ rivojlanish huquqini hozirgi va kelajak avlodlarning ehtiyojlarini adolatli qondirish sharti bilan bog‘laydi. Xalqaro huquqiy amaliyot uchun inqilobiy ahamiyatga ega bo‘lgan **15-moddada** – “Ehtiyotkorlik yondashuvi” hisoblanadi. Unga ko‘ra, jiddiy yoki tuzatib bo‘lmas zarar xavfi mavjud bo‘lganda, to‘liq ilmiy isbotning yo‘qligi ekologik degradatsiyaning oldini olish choralarini kechiktirish uchun bahona bo‘la olmaydi.²² Shuningdek, deklaratsiyaning **16-moddasida** aks etgan “Ifloslantiruvchi to‘laydi” prinsipi ekologik zararni qoplashning iqtisodiy-huquqiy mexanizmini belgilab berdi. Bu prinsip ekologik xarajatlarni jamiyat zimmasiga emas, balki bevosita zarar yetkazuvchi subyekt zimmasiga yuklash orqali bozor iqtisodiyoti sharoitida ekologik adolatni ta‘minlaydi.²³

Deklaratsiyaning yana bir muhim yutug‘i – **10-moddada** bo‘lib, u ekologik masalalarni hal qilishda jamoatchilikning ishtirok etish huquqi, axborot olish huquqi va adolatli sud muhokamasiga bo‘lgan huquqini (protsessual ekologik huquqlar) kafolatlab berdi. Ushbu tamoyil keyinchalik 1998-yildagi Orxus konvensiyasining asosi bo‘lib xizmat qildi. Binobarin, Rio deklaratsiyasi ekologik huquqlarni nafaqat moddiy, balki protsessual huquqlar tizimi sifatida shakllantirdi va davlatlarning bu boradagi global hamkorlik modelini *Agenda 21* strategik hujjati orqali mustahkamladi.

1992-yilgi Rio sammitining eng salmoqli hujjati hisoblangan “**Agenda 21**” barqaror rivojlanish konsepsiyasini nazariyadan amaliyotga ko‘chirgan global harakatlar dasturidir. Ushbu hujjatning o‘ziga xos jihati shundaki, u ekologik huquqlarni nafaqat davlatlararo darajada, balki mahalliy boshqaruv va jamiyatning har bir bo‘g‘ini ishtirokida amalga oshirishni ko‘zda tutuvchi “globaldan – mahalliyga” tamoyiliga tayanadi.²⁴ “Agenda 21”ning inqilobiy jihati uning **uchinchi bo‘limida** aks etgan bo‘lib, u asosiy guruhlarining rolini kuchaytirishga qaratilgan. Bunda ekologik qarorlar qabul qilishda ayollar, yoshlar, mahalliy xalqlar, nodavlat tashkilotlar va mahalliy hokimiyat organlarining ishtiroki huquqiy standart darajasiga ko‘tarildi. Xususan, **28-**

²¹Rio deklaratsiyasi <https://sdgs.un.org/sites/default/files/documents/1709riodeclarationeng.pdf>

²² Rio deklaratsiyasi <https://sdgs.un.org/sites/default/files/documents/1709riodeclarationeng.pdf>

²³ Rio deklaratsiyasi <https://sdgs.un.org/sites/default/files/documents/1709riodeclarationeng.pdf>

²⁴ “Agenda 21” <https://sdgs.un.org/sites/default/files/publications/Agenda21.pdf>

bobda²⁵ mustahkamlangan "Mahalliy Agenda 21" (*Local Agenda 21*) tushunchasi har bir mahalliy hamjamiyatni o'z ekologik rejasini tuzishga undaydi.

Hujjatning yakuniy qismi esa resurslarni boshqarish va amalga oshirish vositalariga bag'ishlangan bo'lib, unda moliyaviy mexanizmlar, texnologiyalar transferi va ilmiy hamkorlik masalalari qat'iy belgilangan. "Agenda 21" shunchaki ekologik tavsiyanoma emas, balki milliy qonunchilik tizimlarini barqaror rivojlanish maqsadlariga moslashtirishni talab qiluvchi global "yo'l xaritasi"dir.

BMT xalqaro huquqiy tizimida atrof-muhit bo'yicha inson huquqlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish bir nechta fundamental xulosalarni chiqarish imkonini beradi. **Birinchidan**, ekologik huquqlar evolyutsiyasi "insonga yo'naltirilganlik"dan "tabiat bilan uyg'unlik" (*ekotsentrizm*) paradigmasiga o'tish bilan xarakterlanadi. 1972-yilgi Stokgolm deklaratsiyasi atrof-muhitni inson hayoti uchun zarur "resurs" sifatida baholagan bo'lsa, 1982-yilgi Tabiatning Butunjahon Xartiyasi tabiatning o'ziga xos mustaqil qiymatini tan oldi. Bu esa insonning sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquqini nafaqat iste'mol, balki sivilizatsiyaviy mas'uliyat sifatida qayta shakllantirdi. **Ikkinchidan**, ekologik va iqtisodiy manfaatlar o'rtasidagi ziddiyat "Barqaror rivojlanish" doktrinasining asosi bo'lib xizmat qildi. 1987-yilgi Brundtland komissiyasi va 1992-yilgi Rio deklaratsiyasi ekologik muhofazani iqtisodiy o'sishga qarshi qo'yishdan voz kechib, ularni bir-birini taqozo etuvchi yagona tizimga birlashtirdi. Ayniqsa, "avlodlararo adolat" tamoyilining muhrlanishi ekologik huquqlarni vaqt doirasidan chiqarib, ularga universal va davomiy inson huquqi maqomini berdi. **Uchinchidan**, ekologik huquqlarning moddiy mazmuni (toza suv, havo, yer) protsessual huquqlar (axborot olish, qaror qabul qilishda ishtirok etish va sud himoyasi) bilan boyitildi. Rio deklaratsiyasining 10-moddasi va keyinchalik Orxus konvensiyasi bilan mustahkamlangan ushbu "ekologik demokratiya" mexanizmlari inson huquqlarining xalqaro himoyasini real protsessual vositalar bilan ta'minladi. Xulosa qilib aytganda, BMT tizimidagi tarixiy bosqichlar ekologik huquqlarni shunchaki "uchinchi avlod" huquqlarining bir qismi sifatida emas, balki barcha inson huquqlarining (yashash, sog'liqni saqlash, mulkdorlik) mavjud bo'lishining zaruriy sharti va huquqiy kafolati darajasiga ko'tardi. Bu esa milliy qonunchilik tizimlarini, jumladan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini xalqaro standartlarga muvofiq modernizatsiya qilish uchun huquqiy-doktrinal asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. (1948). – [Elektron resurs]: <https://lex.uz/docs/-7338189> (Murojaat sanasi: 26.04.2026).
2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt. (1966). – [Elektron resurs]: <https://lex.uz/uz/docs/-2686000> (Murojaat sanasi: 26.04.2026).
3. Declaration of the United Nations Conference on the Human Environment (Stockholm Declaration). (1972). – [Online resource]: <https://legal.un.org/avl/ha/dunche/dunche.html>
4. World Charter for Nature. UN General Assembly Resolution 37/7. (1982). – [Online resource]: <https://digitallibrary.un.org/record/39295>

²⁵ "Agenda 21" <https://sdgs.un.org/sites/default/files/publications/Agenda21.pdf>

5. Report of the World Commission on Environment and Development: Our Common Future (Brundtland Report). (1987). – [Online resource]: <https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/5987our-common-future.pdf>
6. Rio Declaration on Environment and Development. (1992). – [Online resource]: <https://sdgs.un.org/sites/default/files/documents/1709riodeclarationeng.pdf>
7. Agenda 21: United Nations Conference on Environment & Development. (1992). – [Online resource]: <https://sustainabledevelopment.un.org/outcomedocuments/agenda21>
8. Amrullayevich A. M. Ikkinchi jahon urushidan keyingi global siyosiy tartib va uning xususiyatlari // Shokh Library. – 2026. – T. 1. – №. 1. – [Elektron resurs]: <http://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/10856>
9. Xalimjon o‘g‘li I. S. Davlat iqtisodiy xavfsizligining global ekologik omillari // Innovation Science and Technology. – 2025. – T. 1. – №. 9. – C. 78-82. – [Elektron resurs]: <https://ist-journal.uz/index.php/IST/article/download/254/226>
10. ‘Only One Earth’: Environmental Perceptions and Policies before the Stockholm Conference, 1968–1972 // Journal of Global History. – Cambridge University Press. – [Online resource]: <https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-global-history/article/only-one-earth-environmental-perceptions-and-policies-before-the-stockholm-conference-19681972/3DF642E397EC69DADA23C20B35C6DDE2>